

SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINI RAQAMLASH TIRISH SHAROITIDA TAKOMILLASH TIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

“AKT sohasida iqtisodiyot” kafedrasi dotsent v.b. (PhD)

ORCID: 0009-0007-5218-9668

Annotatsiya. Mamlakatimizda soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish jarayonlari va ularning samaradorlikka ta'siri tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar - yagona soliq hisobi va to'lovi, onlayn-kassalar, soliq monitoringi, katta ma'lumotlar, sun'iy intellekt va blokcheyn - soliq organlari faoliyatida muhim o'rin tutayotganini ta'kidlaydi. Raqamli transformatsiya soliq to'lovchilar uchun qulaylik yaratadi, ma'muriy yukni kamaytiradi va soliq tushumlarini oshiradi. Shuningdek, soliq organlari bilan raqamli o'zaro aloqalarni rivojlantirish, aniq ma'lumotlar bazasini yaratish va avtomatlashtirilgan nazoratni kuchaytirish kelgusi rivojlanishning asosiy yo'nalishlari sifatida ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: raqamli soliq ma'muriyatchiligi, soliq hisobi, soliq monitoringi, sun'iy intellekt, blokcheyn texnologiyasi, soliq to'lovchilar bilan raqamli o'zaro aloqa, katta ma'lumotlar, avtomatlashtirilgan nazorat, soliq tizimi samaradorligi.

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi zamonaviy soliq ma'muriyatchiligining institutsional va funksional tuzilmasini tubdan transformatsiya qilish zaruratini yuzaga chiqarmoqda. Raqamli soliq ma'muriyatchiligiga o'tishdan asosiy ma'no — soliq organlari faoliyatini ma'lumotlar asosida boshqarish (data-driven tax administration) mexanizmiga adaptatsiyalashdan iborat bo'lib, bu fiskal jarayonlarning aniqlik darajasi, shaffofligi va samaradorligini sezilarli oshiradi. Birinchi navbatda, Katta ma'lumotlar (Big Data), sun'iy intellekt va intellektual tahlil texnologiyalarini qo'llash orqali soliq risklarini oldindan aniqlash, soliq intizomini monitoring qilish hamda har bir soliq to'lovchi uchun personallashtirilgan soliq xizmatlarini ko'rsatish imkoni kengayadi. Bu model soliq organlarining nazorat funksiyalarini retrospektiv tekshiruvlardan tashqari, haqiqiy vaqt rejimida amalga oshirishga imkon beruvchi tizimni shakllantiradi.

Rossiya tajribasiga o'xshash tarzda, O'zbekistonda ham onlayn-kassalar infratuzilmasini keng joriy etish, elektron hisobvara-q-fakturalar va raqamli hisobotlar aylanmasini rivojlantirish iqtisodiyot ulushini qisqartirish va soliq tushumlarini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa axborot oqimlarini avtomatlashtirish va ularning sifatini boshqarishni yangi bosqichga olib chiqadi.

Natijada, raqamli soliq ma'muriyatchiligining amaliyotga joriy etilishi O'zbekiston soliq tizimini:

- prognozlashuvchan;
- transparent;
- soliq to'lovchilar uchun yengillashtirilgan;
- raqamli risk-menejmentga asoslangan.

Yagona ekosistema sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Soliq to'lovchilar bilan o'zaro munosabatlarning integral raqamli kanallarini rivojlantirish. Ushbu yo'nalish soliq ma'muriyatining soliq to'lovchilar bilan interaktiv va uzluksiz raqamli aloqalarini ta'minlashga qaratilgan. Yagona soliq hisobi, mobil ilovalar va bulutli infratuzilma orqali soliq hisobotlarini masofaviy yuborish, to'lovlarni avtomatik amalga oshirish kabi jarayonlar shular jumlasidandir. Soliq ma'muriyatchiligining buxgalteriya dasturlari va biznes jarayonlariga to'g'ri integratsiyalashgan holda ortiqcha byurokratik harakatlarni minimallashtirishni nazarda tutadi. Bu esa iqtisodiy sub'ektlar uchun soliq majburiyatlarini bajarishda yuqori darajada qulaylik va tezkorlik yaratadi.

Davlat organlari o'rtasida ma'lumot almashinuvining ochiq arxitekturali integratsiyasini shakllantirish. Soliq ma'muriyati samaradorligini oshirishning muhim sharti — davlat organlari, bank-moliya tuzilmalari va boshqa axborot operatorlari bilan xavfsiz, tezkor va standartlashtirilgan ma'lumot almashinuvini yo'lga qo'yishdir. Blokcheyn texnologiyasiga asoslangan hujjat aylanmasi va dalillashtirish mexanizmlari soliq nazoratining ishonchliligini oshiradi, axborotning haqqoniyligi va qayta o'zgartirilishining oldini oladi. Shu bilan birga, xalqaro ma'lumot almashinuv tizimlari bilan uyg'unlikni ta'minlash O'zbekistonning global soliq makonida raqobatbardoshligini oshiradi.

Raqamli soliq xizmatlarining yangi arxitekturasini barpo etish. Raqamli soliq ma'muriyatining asosiy bo'g'ini — soliq to'lovchining yagona va ishonchli raqamli identifikatsiya tizimi hisoblanadi. U personal ma'lumotlarni himoya qilgan holda soliq ma'muriyati, elektron davlat xizmatlari va xususiy raqamli platformalar bilan uzviy integratsiyani ta'minlaydi. Bu tizim soliq to'lovchining yagona raqamli profili asosida barcha soliq majburiyatlari, lavozim va vakolatlarini aniq hisobga olish imkonini yaratadi.

Ilg'or raqamli texnologiyalar asosida jarayonlarni to'liq avtomatlashtirish. Sun'iy intellekt, prediktiv analitika va blokcheyn kabi texnologiyalarning joriy etilishi soliq ma'muriyatini konseptual jihatdan yangilamoqda. Buning natijasida soliq risklarini erta aniqlash, nazoratni avtomatlashtirish, soliq tushumlari barqarorligini ta'minlash imkoni kengayadi. Blokcheynga asoslangan "Aqlli shartnomalar" soliq majburiyatlarini real vaqt rejimida hisoblash va bajarishni ta'minlab, soliq

hisobotlariga bo‘lgan ehtiyojni keskin kamaytirishi mumkin. Bu orqali salbiy inson omili bartaraf etilib, shaffoflik va ishonch darajasi yuqorilaydi.

Xulosa qilib, soliq ma‘muriyatchiligining raqamli transformatsiyasi zamonaviy iqtisodiy boshqaruvning strategik yo‘nalishi bo‘lib, uning mohiyati faqat texnik infratuzilmani yangilash bilan cheklanmaydi. U soliq tizimini fuqaro va biznes uchun iloji boricha sezilmas, biroq samarasi yuqori bo‘lgan shaffof, adolatli va ishonchga asoslangan mexanizm sifatida qayta shakllantirishni nazarda tutadi. Bu jarayon soliq organlari va soliq to‘lovchilar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni raqamli muhitga o‘tkazish, ma‘lumotlar sifati va qolaversa, avtomatlashtirilgan nazorat vositalari orqali huquqbuzarliklarning oldini olish imkonini beradi .

Shu bois, kelgusi rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlari quyidagilardan iborat bo‘lishi maqsadga muvofiq:

- soliq xizmatlari ekosistemasini to‘liq raqamlashtirish va uni biznes jarayonlariga bog‘lash;
- ma‘lumotlar xavfsizligi va ularning haqqoniyligini ta‘minlash asosida ishonch kapitalini oshirish;
- sun‘iy intellektga tayangan profilaktik soliq nazoratini joriy qilish;
- soliq yuki va ma‘muriy xarajatlarni minimallashtirish orqali soliq to‘lash madaniyatini kuchaytirish.

Shunday qilib, raqamli soliq ma‘muriyatchiligi O‘zbekiston iqtisodiy barqarorligiga xizmat qiluvchi institutsional islohotlar markazida turibdi. U soliq to‘lovchi uchun qulay muhit yaratish orqali davlat va jamiyat manfaatlarining muvozanatini ta‘minlashga qaratilgan uzoq muddatli rivojlanish drayveri sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Братцев, В.И. Развитие процесса цифровизации как фактор, определяющий изменения механизма налогового администрирования / В.И. Братцев, А.М. Гришанова // Вестник Российского экономического университета имени Г.В. Плеханова. – 2021. – Т. 18, № 1 (115). – С. 5-13.
2. Лютова, О.И. Применение технологии блокчейн в налоговом администрировании / О.И. Лютова, И.Д. Фиалковская // RUDN Journal of Law. – 2021. – Vol. 25, № 3. – С. 693-710.
3. Djamalov Kh.N., Abdullayev A.B, (2021). Development Of The Methodology Of Accounting Expertise Of Tax Obligations. The American Journal of Management and Economics Innovations, 3(05), 151-163
4. Усатова Л.В. Организация процесса налогового аудита расходов. Журнал экономический анализ: теория и практика, 2008, 24 (129), 26-31стр
5. Ҳотамов К.Р. (2016) ”Билвосита солиқлар ҳисоби, таҳлили ва аудитини такомиллаштириш” диссертация и.ф.д., –Т.: - 136 б.

(8th international scientific and practical conference)